Konferensiyaning birinchi kuni o`z nihoyasiga yetdi

Katta adron kollayderi – dunyodagi eng katta tezlatgichlar kompleksidir. U Fransiya va Shvetsariya chegara hududlarida Jeneva ko‘li vohasida, yuz metr yer ostida joylashgan. Kompakt myuon solinoidli (CMS) detektori kollayderdagi umumiy foydalanishga mo‘ljallangan beshta qayd etuvchi detektorlardan biri bo‘lib, standart modelini o‘rganishdan boshlab (jumladan Xiggs bozonini o‘z ichiga oluvchi) qora materiyani tashkil etishi mumkin bo‘lgan zarrachalarni izlashgacha bo‘lgan keng tadqiqotlar dasturini o‘z ichiga olgan. Olib borilayotgan tadqiqotlar materiya mikrostrukturasini batafsil tushunish va Katta portlashdan so‘ng koinot shakllanishining boshlang‘ich bosqichlarini o‘rganish imkonini beradi.